

HUDUDLARDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH KO'RSATKICHLARI TAHLILI

Z.S.Shoxo'jaeva

Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida
strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi katta ilmiy xodimi

shoxujaeva@mail.ru

S.N. Mixridinov

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi
Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi

Annotatsiya

Ma'lumki, mamlakatimiz aholisini dehqonchilik mahsulotlari bilan ta'minlash asosan fermer xo'jaliklari tomonidan, chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash esa dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari tomonidan amalga oshirilayotganligi kuzatilmoqda. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat ko'rsatyotgan fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdagi ulushi va mahsulot hajmi ko'payishi bo'yicha tahlillar qilingan va natijada olingan ma'lumotlar asosida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar

Agrar sektor, fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklari, barqaror rivojlanish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Annotation

It is known that the population of our country is supplied with agricultural products mainly by farms, and livestock products are provided by peasant (personal subsidiary) farms. From this point of view, this article analyzes the share of farmers, peasants and personal subsidiary plots in agricultural production and the increase in production volumes in the developed agricultural sector of the Kashkadarya region.

Keywords

Agricultural sector, farmers, dehqan farms and personal subsidiary plots, sustainable development, diversification of production, government support

Kirish. Jahonda aholi soni oshishi bilan birga oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hajmi hamda jahon bozorlarida xaridorgir bo'lgan mahsulotlar eksporti ko'lamini oshirish singari dolzarb muammolarni hal etishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'rni ortib bormoqda. Zero, BMT ma'lumotlariga ko'ra, "2050 yilga borib jahon aholisi soni 9,2 mlrd. kishiga yetishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni 70 foizga oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda".



Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoevning “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmoni birinchi ilovasi 30-maqсадida “Qishloq xo’jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo’jaligining yillik o’sishini kamida 5 foizga yetkazish” masalasi aynan tarmoqni barqaror rivojlantirishga qaratilganligidan dalolatdir. Bunda asosiy vazifalardan: tumanlarni aniq mahsulot turiga ixtisoslashtirish; qishloq xo’jaligini davlat tomonidan qo’llab quvvatlash; 200 ming gektar paxta va g’alla maydonlarini qisqartirish hamda aholiga ochiq tanlov asosida uzoq muddatli ijaraga berish; Eksportbop mahsulotlar yetishtirish hamda mevasabzavotchilikni rivojlantirish, intensiv bog’lar maydonini 3 baravar va issiqxonalarini 2 baravar ko’paytirib, eksport salohiyatini yana 1 milliard AQSh dollariga oshirish; tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish va h.o.

Demak, agrar sektorning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish, fermer, dehqon va shaxsiy yordamchi xo’jaliklarni rivojlantirish, qishloq xo’jaligi mahsulotlari uchun samarali o’zaro hisob-kitob mexanizmlarini ishlab chiqish va bu mahsulotlarni sanoat asosida qayta ishlash ko’lamini kengaytirish, agrar sohani rivojlantirishda uning iqtisodiy samaradorligini oshirish borasidagi ilmiy tendentsiyalar hisoblanadi.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida qiyosiy taqqoslash, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan foydalanildi.

Natijalar. Qishloq xo’jaligini barqaror rivojlanishida tabiiy omillar ta’sirining yuqoriligi bilan bir qatorda qishloq xo’jaligini agrotexnik, huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda qishloq xo’jaligini rivojlantirish uchun investitsiyalar ajratish, qishloq xo’jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari, suv xo’jaligi ob’ektlari faoliyatining muntazamligini ta’minlash, qishloq xo’jaligi ishlab chiqaruvchilarining texnika ta’minotini kuchaytirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, hosildorligi past yerlarda paxta xomashyosi yetishtiruvchi xo’jaliklarni qo’llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi yo’nalishlar davlat tomonidan qo’llab-quvvatlab kelinmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va oziq-ovqat mustaqilligini ta’minlash bo’yicha qishloq xo’jaligini strategik rivojlantirish doirasida o’tkazilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, so’nggi yillarda sohada yuqori sur’atlarga erishildi.

Yuqori sur’atlarda o’sib borayotgan mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash maqsadida, oziq-ovqat ekinlari maydonlarining kengaytirilishi hisobiga g’o’za ekin maydonlari qisqartirildi. Ozuqa ekinlari maydonlarining qisqartirilishi, chorva mollari va parrandalarni mustahkam ozuqa bazasi bilan ta’minlash yaxshi yo’lga qo’yilgan takroriy, oraliq, qator oralig’i ekinlarini ekish hisobidan qoplanayotganligi bilan izohlanadi.

Respublikada ekin maydonlari tarkibiy tuzilmasini oziq-ovqat ekinlari maydonlarini kengaytirish hisobiga bosqichma-bosqich maqbullashtirish bo’yicha aniq maqsadli yo’naltirilgan chora-tadbirlar ko’rilmoqda, shuningdek dehqon (shaxsiy yordamchi) va fermer xo’jaliklarida chorva mollari va parrandalar bosh sonini ko’paytirishni rag’batlantirish bo’yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Tahlillar natijalari, fermer xo'jaliklarida asosan paxtachilik, donchilik, meva-sabzavotchilik va dehqonchilikning boshqa yo'nalishlari, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida esa chorvachilikning yuqori sur'atlarda rivojlanayotganligidan dalolat bermoqda.

Respublika aholisini dehqonchilik mahsulotlari bilan ta'minlash asosan fermer xo'jaliklari tomonidan, chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash esa dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari tomonidan amalga oshirilayotganligi kuzatilmog'ya.

O'zbekiston agrar sektorining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan innovatsion faoliyatning samaradorligi bilan bog'liq. Innovatsiyalarni o'zlashtirish natijasida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish bazasi texnologik, texnik va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan yangilanib boradi. Bu esa o'z navbatida O'zbekistonni jahon bozoriga integratsiyasini ko'chaytiradi.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilda mamlakatimiz oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 1 195,6 mln dollar miqdorida 1757,7 ming tonna meva va sabzavotlar eksport qilingan bo'lib, mahsulotni xorijiy hamkorlarga yetkazib berilishi ham tegishlicha 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,1 foizga yoki 18,9 ming tonnaga ko'paygan.


Shuningdek, meva-sabzavot eksporti hajmi valyuta ko'rinishida 2022 yilga nisbatan 3,3 foizga ko'payib jami eksportdagi ulushi 4,8 foizni tashkil etgan.

Qiymat jihatidan esa 1,18 mlrd dollarga (+3,3 foiz) oshdi. Meva-sabzavot eksportining asosiy bozorlari Rossiya (37 foiz), Pokiston (16,7 foiz), Xitoy (12,3 foiz) va Qozog'iston (10,3 foiz) bo'ldi.

2023 yilda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti asosan quyidagi mahsulot turlari kesimida amalga oshirildi: uzum – 126,1 ming tonna, uzum (quritilgan) – 57,3 ming tonna, shaftoli – 87,2 ming tonna, qovun va tarvuz – 148,1 ming tonna, gilos – 45 ming tonna, o'rik – 63 ming tonna, olxo'ri (quritilgan) – 36 ming tonna, pomidor – 57,5 ming tonna, karam – 97,2 ming tonna, mosh–154,6 ming tonna, piyoz–299,6 ming tonna, tariq – 17 ming tonna va boshqalar.

Endi Qashqadaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotining o'sishida tarmoqlar tarkibini tahlil qilamiz va quyidagi rasmda 2021 va 2022 yillarda iqtisodiy faoliyat turlarining ulushi qanchani tashkil etganini ko'rib chiqamiz.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 33384,6 mlrd. so'mni yoki 2021- yilga nisbatan 103,7 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 32798,4 mlrd. so'mni (103,7 %), o'rmon xo'jaligi 488,6 mlrd. so'mni (102,1 %), baliqchilik xo'jaligi 97,5 mlrd. so'mni (96,7 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Qashqadaryo viloyatining ulushi 9,2 % ni tashkil qildi.



1-rasm. 2021-2022 yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Qashqadaryo viloyati YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

Yuqorida keltirilgan 1-rasmda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. YAHMning tarmoqlar bo'yicha ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliginiki – 41,2 %, sanoatning ulushi – 17,2 %, qurilishniki – 7,0 %, xizmatlar sohasiniki – 34,6 %ni tashkil etdi.



2-rasm. 2022 yilda YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi

(jamiga nisbatan % da)

2022 yilda YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i – 1,5 f.p. (2021- yilda – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,7 f.p. (2021- yilda – 2,5 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2021- yilda – 1,1 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi - 1,6 f.p. (2021- yilda – 2,1 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2021- yilda – 0,3 f.p.)ga ko'paydi.

Respublikamizda fermer xo'jaliklarini huquqiy jihatdan himoya qilish bilan bir qatorda ularni iqtisodiy dastaklar orqali har tomonlama rag'batlantirish choralari ham amalga oshirilmoqda. Davlatning iqtisodiy rag'batlantirish choralari quydagi mexanizmlardan tashkil topadi:

- moliya – kiridit tizimi orqali qo'llab- quvvatlash;
- tabaqalangan va imtiyozli soliq tizimidan foydalanish;
- baholar paritetini saqlash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va boshqalar.

Davlatning fermer xo'jaliklari faoliyatini iqtisodiy dastaklar orqali qo'llab – quvvatlash choralari fermer xo'jaliklarining rivojlanishiga qulay shart – sharoitlar yaratish maqsadida davlat tomonidan beriladigan iqtisodiy rag'batlantirish choralaridan tashkil topadi. Bunday chora-tadbirlar sarasiga soliqlar to'lashda yengilliklar berish, imtiyozli shartlar va foizlarda kreditlar berish, davlat buyurtmasi bo'yicha xarid qilinadigan mahsulotlarga kafillangan baholar belgilash, eksport-inport operatsiyalarida qulay tariflar va to'lovlar o'rnatish kabi iqtisodiy dastaklar kiradi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, viloyatning yuqori o'sish sur'atlari Mirishkor (103,9 foiz), Kitob tumani va Shahrisabz shahar mos ravishda (103,6 foiz), G'uzor (103,2 foiz), Muborak (102,8



foiz), Dehqonobod (102,7 foiz), Koson (102,5 foiz), Qarshi shahar (102,4 foiz), Yakkabog‘ (102,2 foiz), Qamashi (102,1 foiz), Qarshi (101,9 foiz), Nishon (101,3 foiz), Kasbi va Koson tumanlarida (105,7 foiz), Muborak (105,5 foiz), Mirishkor (103,9 foiz), Kasbi va Chiroqchi tumanlarida (101,1 foiz) o‘shish kuzatildi.

Qishloq xo‘jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilganimizda donli ekinlarning 81,4 %i, sabzavotning 73,7%i, poliz mahsulotlarining 49,1%i va meva va rezavorlarning 51,7%i fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelgan. Qolgan ulushlar esa dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlari hissasini tashkil etadi. Misol uchun donli ekinlarni yetishtirishda xo‘jaliklar toifasi bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi (3-rasm).



3-rasm. Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligida xo‘jalik toifalari bo‘yicha donli ekinlar yetishtirish ko‘rsatkichlari

Viloyatning qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar) larining umumiy hajmida Chiroqchi tumanining ulushi 12,0 foizni tashkil etdi va hududlar bo‘yicha yetakchilik qilmoqda, Koson tumani 9,4 foiz, Qamashi tumani 9,2 foiz, Kasbi tumani 8,9 foiz, Kitob tumani 8,4 foiz, Qarshi tumani 8,3 foiz, Yakkabog‘ tumanlari 7,2 foiz, Nishon tumani 6,6 foiz, Mirishkor va Shahrisabz tumanlari 6,5 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egalladi, eng kam ulush Qarshi (0,7 foiz) va Shahrisabz (0,8 foiz) shaharlarida qayd etildi.

Endi 2022 yilda viloyat bo‘yicha ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishini ko‘rib chiqamiz.

1-jadval

Qashqadaryo viloyatida 2022 yilda xo‘jalik toifalari bo‘yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari



IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245

VOLUME 7, ISSUE 2, 2024

Mahsulot turi	Fermer xo'jaliklari		Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda	tonna	o'sish sur'ati, foizda
Jami don	632402	97,1	89364	103,8	55375	198,6
Kartoshka	30595	106,7	148324	100,3	1278	192,2
Sabzavot	128341	110,7	381991	102,3	7957	103,3
Poliz	89956	116,7	91783	100,5	1321	138,9
Meva va rezavorlar	86462	109,4	75830	101,3	5049	119,8
Uzum	45284	108,5	57903	102,8	1962	118,1

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, 2022-yilda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 777,1 ming tonna don ekinlari ishlab chiqarildi. Bundan tashqari barcha toifadagi xo'jaliklarda 180,2 ming tonna kartoshka, (2021- yilga nisbatan 1,7 foizga ko'p), 518,3 ming tonna sabzavot (4,5 foizga ko'p) yig'ib olindi, 183,1 ming tonna poliz ekinlari (8,0 foizga ko'p), 167,3 ming tonna meva va rezavorlar (5,9 foizga ko'p) va 105,1 ming tonna uzum (5,4 foizga ko'p) yetishtirildi.

2022- yilda ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 13127,8 mlrd. so'mni yoki 2021-yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 40,7 % ni tashkil qildi. Shuningdek, barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 518,3 ming tonna sabzavotlar ishlab chiqarildi. Sabzavot ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot ishlab chiqarish umumiy hajmidan 73,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklar hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.

2022- yilda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 180,2 ming tonna kartoshka yetishtirilgan bo'lib, kartoshka mahsulotini ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, kartoshka mahsuloti umumiy hajmidan 82,3 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga, poliz mahsuloti (183,1 ming tonna) umumiy hajmidan 50,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga, mevalar va rezavorlar mahsuloti (167,3 ming tonna) umumiy hajmidan 51,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga va uzum (105,1 ming tonna) mahsuloti umumiy hajmidan 55,1 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim.

2022- yilda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 19099,4 mlrd. so'mni yoki 2021-yilga nisbatan 103,5 % ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 59,3 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.



2022- yilda barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 315,7 ming tonna go‘sh (2021- yilga nisbatan 3,5 % ga ko‘p), 1277,6 ming tonna sut (3,1 % ga ko‘p), 544,5 mln. dona tuxum (7,5 % ga ko‘p) va 5150,7 tonna baliq (96,8 %) ovlandi.



4-rasm. Qashqadaryo viloyati xo‘jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

2022- yil holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,2 % i fermer xo‘jaliklari hissasiga, 92,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 1,5 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 8,4 % i fermer xo‘jaliklariga, 84,7 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 6,9 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi, otlar umumiy sonidan 14,3 % i fermer xo‘jaliklariga, 80,3 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 5,4 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 6,3 % i fermer xo‘jaliklariga, 70,0 % i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 23,7 % i qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi

Munozara. Xulosa qiladigan bo‘lsak, viloyat qishloq xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan fermer va dehqon xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilayotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yildan-yilga oshib bormoqda. Binobarin, mamlakatimizda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishga agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishi sifatida qaralmoqda-ki, buning natijasida, xo‘jalik yuritish shakllari orasida fermer xo‘jaliklarining mavqeyi yil sayin oshib borayotganligini guvohi bo‘lmoqdamiz.



Ta'kidlash lozimki, fermer xo'jaliklari sonining o'sishi ularning faoliyati samaradorligi darajasi to'g'risida to'liq tasavvur bermaydi. Fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish uchun ularning ixtisoslashuv darajasi muhim ahamiyatga ega. Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillarida jahon qishloq xo'jaligi tajribasida sinalgan va hozirgi paytda rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligida samarali xo'jalik yuritish shakli sifatida o'zini oqlagan fermer xo'jaligining faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 28.01.2023.
2. Позаботимся о будущем сельского хозяйства. – www.bayer.ru
3. ZS Shokhujaeva, HN Mirjamilova. Innovative processes in the water sector and factors influencing their development. Asian Journal of Research in Business Economics and Management. 2022. №5, стр.18-27.
4. SZ Safoevna, MN Juraevna. Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. 2021. Том 27, Номер 2, Страницы 4055-4061.
5. ZS Shoxo'jayeveva. Problems and solutions in the water sector of the region. - НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 2020. Стр.21-24.
6. ZS Shoxo'jayeveva, M Norqobilov Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan. - НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 2020.
7. ЗС Шохужаева Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов. - Economics, 2020.
8. Sagdullaevna TF, Shoxo'jayeveva Zebo Safoevna. Food provision of the population of the Republic of Uzbekistan in pandemy conditions: problems and solutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021/2.
9. ZS Shoxujaeva. Economic efficiency of water resources use in the agricultural sector. Monograph. T.: "Economy and Finance" Publishing House, 2012
10. ЗС Шохўжаева. Қашқадарё вилоятида сув ресурсларидан самарали фойдаланишнинг долзарб масалалари. Irrigatsiya va Melioratsiya, 2018. №3, 82-88 бет.
11. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2022.
12. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/49769-o-zbekiston-respublikasi-tashqi-savdo-aylanmasi-2023-yil-yanvar-dekabr-2>